



OILAVIY MUNOSABATLARNI TARTIBGA SOLISHNING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI

Shamsiddinova Ozoda Bo'riyevna

Sudyalar oliy maktabi Ilmiy tadqiqotlarni muvofiqlashtirish
bo'limi bosh mutaxassisi, yu.f.f.d.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.13374169>

ARTICLE INFO

Received: 14th August 2024

Accepted: 15th August 2024

Published: 18th August 2024

KEYWORDS

ABSTRACT

Oila avlodlar davomiyligi, qadriyatlar, urf-odatlar va an'analarni, qolaversa, xalqimiz ma'naviy merosining avloddan avlodga o'tishini ta'minlavchi omildir. Shu tufayli oilani qo'llab-quvvatlash masalasi davlatimizning doimiy diqqat e'tiborida turadi. Oila qancha mustahkam bo'lsa, jamiyat ham shunchalik mustahkam bo'ladi va rivojlanadi.

O'zbekistonda oilani rivojlantirish, oila institutini mustahkamlash borasidagi ishlarni tizimlashtirish va samaradorligini yanada oshirishga global darajada Birlashgan Millatlar Tashkilotining Barqaror taraqqiyot maqsadlari doirasida, shuningdek, 2022–2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi doirasida qaralmoqda. Taraqqiyot strategiyasida inson qadrini ulug'lashga yo'naltirilgan 7 ta ustuvor yo'nalishlar va yuzta maqsadning diyarli barchasini negizida oilalarning ijtimoiy, iqtisodiy va ma'naviy barqarorligi, tinchligi va farovonligi masalalariga qaratilgan. Shuningdek, ushbu taraqqiyot strategiyasining barcha maqsadlari oilalarni qo'llab-quvvatlash orqali oilalarning ijtimoiy-iqtisodiy farovonligini ta'minlashga yo'naltirilgan.

Oila jamiyatning asosiy instituti hisoblanadi. Shu bois u doimo davlat hamda jamiyat muhofazasida bo'lgan va shunday bo'lib qoladi. Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh Assambleyasining 1993 yil

20 sentyabrdagi "Xalqaro oila yili to'g'risidagi rezolyusiyasi"

(A/RES /47/237)¹ ga muvofiq 15 may kuni, jahon miqyosida "Xalqaro oilalar kuni" (International Day of Families) sifatida nishonlanadi. Xalqaro oilalar kunini o'tkazishdan maqsad jahon hamjamiyati diqqatini oilaviy qadriyatlarga va oila instituti bilan bog'liq muammolarga qaratishdir. Bayram munosabati bilan har yili BMT bosh kotibining murojaati e'lon qilinadi.

Shu o'rinda **oila** va **nikoh** masalalariga alohida to'xtalib o'tsak. Ba'zi yuridik adabiyotlarda oila va nikoh tushunchalariga bir xilda qarash yondashuvlari mavjud. Jumladan, huquqshunos olim L.P.Anufrieva "Nikoh –oila turli mamlakatlar huquq tizimida mavjud bo'lgan yuridik farqlar sezilarli darajada ta'sir qiladigan qadimgi institutlardan bir deb hisoblaydi²".

¹ Резолюция, принятая Генеральной Ассамблеей [без передачи в главные комитеты (A/47/1011)] / A/ PEC/47/23.

² Анурьева Л.П. Международное частное право. В 3х т. Том 2. Особенная часть:// - М.:1973.-С.24.

Rossiyalik huquqshunos S.A.Muratova “nikoh va oila deganda ma’lum huquqiy faktorlarning kelib chiqishi sababli er-xotin munosabatlarining boshlanishi”³ tushunilishi haqida o’zining fikrlarini bayon qilgan. Muallifning ushbu ta’rifi haqiqatga yaqin bo’lsa-da, biroq u o’zining bu ta’rifi bilan nikoh va oila haqidagi fikrni umumiy, ya’ni noaniq doirada ifoda etgan.

Oila haqida gap boshlashdan avval uning tushunchasiga e’tibor qiladigan bo’lsak, **“oila”** so’zining lug’aviy ma’nosi haqida manbalarda turlicha fikrlar bildirilgan. Oila asli arabcha “ayolmand, niyozmand” ma’nolarni anglatuvchi “oil” so’zidan olinganligi “Farxangi zaboni tojik”⁴ da qayd etilgan. “O’zbek tilining izohli lug’ati” da oilaga er-xotin, ularning bola-chaqalari va eng yaqin tug’ishganlaridan iborat birga yashovchi kishilar majmui, xonadon sifatida ta’rif berilgan.⁵

O’zbekiston Respublikasi Oila kodeksining umumiy mazmun mohiyatidan anglashilishicha oila birgalikda yashaydigan, umumiy hayot bilan bog’langan, o’zaro huquq va majburiyatlarga ega bo’lgan shaxslardan iborat. Biroq, ta’kidlash kerakki milliy qonunchiligimizda “Oila” institutiga huquqiy ta’rif berilmagan.

Yuqoridagi fikrlardan kelib chiqib shuni aytish mumkinki, milliy qonunchiligimizda **“oila”** tushunchasiga ta’rif berilmaganligi va har xil adabiyotlarda turlicha ifoda topganligi hamda milliy qonunchilikdagi normalarni unifikatsiyalash maqsadida O’zbekiston Respublikasining Oila Kodekiga “oila” tushunchasini kiritish maqsadga muvofiqdir. Xususan, Oila kodeksigaga **“Oila”** nomli 1¹-moddani kiritish va uni quyidagicha belgilash zarur:

“Oila jamiyatning dastlabki va asosiy bo’g’inidir.

Oila nikoh, qarindoshlik, farzandlikka olish asosida, shuningdek qonun bilan taqiqlanmagan va jamiyatning axloqiy asoslariga zid bo’lmagan boshqa asoslarda vujudga keladi.

Oilani vujudga kelishining dastlabki asosi nikoh hisoblanadi. Nikoh erkak va ayolning birga yashash maqsadida ixtiyoriy roziligi bilan tuzgan ittifoqidir.

Oila birgalikda yashaydigan, umumiy turmush bilan bog’langan, o’zaro huquq va majburiyatlarga yega bo’lgan shaxslardan iborat. Er va xotin o’qish, ishlash, davolanish, ota-onalar, bolalarga g’amxo’rlik qilish zarurat va boshqa asosli sabablarga ko’ra birga yashamasa ham oila hisoblanadi. Bola, garchi u ota-onasi bilan birga yashamasa ham o’z ota-onasining oila a’zosi hisoblanadi.

Yolg’iz odam oila a’zosining huquqlariga ega”.

Nikoh atamasini o’rganadigan bo’lsak, **“Nikoh** fuqarolik holati dalolatnomalarini qayd etish organlarida ro’yxatga olingan paytdan boshlab nikohni tuzganlar er-xotin deb hisoblanadilar va shu paytdan e’tiboran ular o’rtasida er-xotinlik huquq va majburiyatlari vujudga keladi, deb izohlangan Oila kodeksining 18-moddasida.

“Nikoh” so’zi arabcha (نكاح) “nakaha” fe’lidan yasalgan bo’lib, uylanmoq, turmushga chiqmoq ma’nolarini anglatadi. Bu haqda “Annai’umul-kabiyir” arabcha-o’zbekcha lug’atda: “(نكاح) nikaahun- nikohlanmoq, uylanmoq, turmushga chiqmoq⁶”, deyiladi.

³ Муратова С.А. Семейное право. – М.: Юриспруденция, 2001. – С. 70.

⁴ “Farxangi zaboni tojiki” Академия наук таджикский ССР институт языка и литературы им. Рудаки. (X- начало XX век а). В двух томах. Под редакцией М.Ш.Шукурова, В.А.Капранов, Р.Хошим, Н.А.Масуми. - М.: “Советская энциклопедия”, 1969.

⁵ Окюлов О. ва бошқалар. “Аёллар ва болалар мулкый манфаатларини алимент муносабатлари орқали таъминлаш масалалари”. – Т.: Янги аср авлоди, 2019. – Б. 53.

⁶ “Аннаъиумул-кабийр”. Арабча-ўзбекча луғат. Наманган. Наманган нашриёти. 2014. 716-бет.

“O‘zbek tilining izohli lug‘ati” kitobida “nikoh” (نكاح) - uylanish, erga tegish; er-xotinlik⁷” deb izoh beriladi. Nikohning shar‘iy ma‘nosi haqida Shayx Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf hazratlari “Shariatda esa nikoh bir bog‘lanish⁸”, deb yozadilar.

“Islom ensiklopediyasi”da nikoh haqida “Nikoh zavoj (arabcha-turmush qurish, uylanish, er-xotinlik, er-xotinlikni shariat yo‘li bilan rasmiylashtirish marosimi va shu marosimda mulla tomonidan o‘qiladigan ahdlashuv⁹ deyiladi.

Amaldagi Oila kodeksida nikoh tushunchasiga ta‘rif berilmagan. Shu sababli mazkur tushunchaning ta‘rifini nikohning huquqiy tabiati, qonunchilikda unga nisbatan belgilangan qoidalar hamda erkak va ayolning o‘zaro istak xohishi natijasi sifatidagi kelishuv ekanligidan kelib chiqib e‘tirof etish zarur.

Bizningcha, **“Nikoh bu - erkak va ayolning ixtiyoriy roziligiga va teng huquqliligiga asoslangan, oila tuzish va er-xotinning o‘zaro huquq va majburiyatlarini keltirib chiqarishga qaratilgan ittifoqidir”** degan ta‘rifni qonunchilikka kiritish maqsadga muvofiqdir.

Yuqorida ta‘kidlanganidek, O‘zbekiston Respublikasining Oila kodeksida oila tushunchasini yoritib beradigan aniq mezonlar mavjud emas. Bundan tashqari, oila qonunchiligida “oila” tushunchasining ta‘rifi mavjud emasligi o‘z navbatida sud va huquqni qo‘llash amaliyotida turlicha talqinni yuzaga keltiradi. Professor N.Kuldashevning fikriga ko‘ra, global ommaviy madaniyat tahdidlari ortib borayotgan bugungi sharoitda “oila” va “nikoh” tushunchalari Asosiy Qonun, ya‘ni O‘zbekiston Respublikasining Konstitusiyasida aniq shaklda o‘z ifodasini topishi kerak¹⁰.

Xulosa o‘rnida aytadigan bo‘lsak, oila qonunchiligi normalarida oila huquqining asosiy tushunchalari bo‘lgan “oila” va “nikoh” tushunchalari kiritilmasa, oila va nikoh munosabatlarini huquqiy tartibga solishda, huquqni qo‘llash amaliyotini birxillashtirishda muammolar bartaraf etilmaydi.

FOYDALANGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Резолюция, принятая Генеральной Ассамблеей [без передачи в главные комитеты (A/47/1011)] / A/ RES/47/23.
2. Ануфриева Л.П. Международное частное право. В 3х т. Том 2. Особенная част://- М.:1973.-С.24.
3. Муратова С.А. Семейное право. – М.: Юриспруденция, 2001. – С. 70.
4. “Фарҳанги забони тоҷики” Академия наук таджикский ССР институт языка и литературы им. Рудаки. (X- начало XX век а). В двух томах. Под редакции М.Ш.Шукурова, В.А.Капранов, Р.Хошим, Н.А.Масуми. - М.: “Советская энциклопедия”, 1969.
5. Оқюлов О. ва бошқалар.“Аёллар ва болалар мулкӣ манфаатларини алимент муносабатлари орқали таъминлаш масалалари”. – Т.: Янги аср авлоди, 2019. – Б. 53.

⁷ “Ўзбек тилининг изоҳли луғати” // - Тошкент. 2020й. 3-жилд. 38-бет.

⁸ Шайх Муҳаммад Содиқ Муҳаммад Юсуф. Кифоя. Т. Ҳилол нашриёти. 2-жилд. 334-бет.

⁹ Ислом энциклопедияси. Т. 358-359-бетлар.

¹⁰ Kuldashev N.A. Oila qonunchiligida gender tengligi: muammo va echimlar // O'zbekiston Respublikasining oila kodeksi – mustahkam oila tayanchi: Respublika ilmiy-amaliy konferentsiyasi materiallari (2022 - yil 12 may). –Т.: O'zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi, 2022. – В. 25-30.

6. “Аннаъиумул-кабийр”. Арабча-ўзбекча луғат. Наманган. Наманган нашриёти. 2014. 716-бет.
7. “Ўзбек тилининг изоҳли луғати” // - Тошкент. 2020й. 3-жилд. 38-бет.
8. Шайх Муҳаммад Содиқ Муҳаммад Юсуф. Кифоя. Т. Ҳилол нашриёти. 2-жилд. 334-бет.
9. Ислом энциклопедияси. Т. 358-359-бетлар.
10. Kuldashv N.A. Oila qonunchiligida gender tengligi: muammo va yechimlar // O'zbekiston Respublikasining oila kodeksi – mustahkam oila tayanchi: Respublika ilmiy-amaliy konferentsiyasi materiallari (2022 - yil 12 may). –Т.: O'zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi, 2022. – В. 25-30.

